

ZAMONAVIY ILMDA KOGNITIV NARRATOLOGIYANING SHAKLLANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19186655>

Nazirova Nargiza Odiljonovna

*Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqola Zamonaviy ilm-fanda kognitiv narratologiyaning shakllanish jarayonini yoritishga bag'ishlangan. Unda narratologiyaning an'anaviy strukturaviy yondashuvdan kognitiv paradigma sari rivojlanishi, ya'ni matn markazli tahlildan inson tafakkuri va idrok jarayonlariga yo'naltirilgan tadqiqot uslubiga o'tishi tahlil qilinadi. Maqolada kognitiv narratologiyaning nazariy asoslari, uning kognitiv fanlar, psixologiya va tilshunoslik bilan integratsiyasi hamda narrativni qabul qilish, tushunish va talqin etish mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *perspektiva, empatiya, narratologiya, kognitiv, kognitiv narratologiya*

**ФОРМИРОВАНИЕ КОГНИТИВНОЙ НАРРАТОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОЙ
НАУКЕ**

Аннотация

Данная статья посвящена освещению процесса формирования когнитивной нарратологии в современной науке. В ней анализируется развитие нарратологии от традиционного структурного подхода к когнитивной парадигме, то есть переход от текстоцентричного анализа к методу исследования, ориентированному на человеческое мышление и когнитивные процессы. В статье рассматриваются теоретические основы когнитивной нарратологии, её интеграция с когнитивными науками, психологией и лингвистикой, а также механизмы восприятия, понимания и интерпретации повествования.

Ключевые слова: *perspektiva, empatiya, narratologiya, kognitivniy, kognitivnaya narратология*

THE FORMATION OF COGNITIVE NARRATOLOGY IN MODERN SCIENCE

Abstract

This article is devoted to highlighting the process of formation of cognitive narratology in modern science. It analyzes the development of narratology from a traditional structural approach to a cognitive paradigm, that is, the transition from text-centered analysis to a research method focused on human thinking and cognitive processes. The article examines the theoretical foundations of cognitive narratology, its integration with cognitive sciences, psychology and linguistics, as well as the mechanisms of perception, understanding and interpretation of narrative.

Keywords: *perspective, empathy, narratology, cognitive, cognitive narratology*

Zamonaviy ilmda kognitiv narratologiya hikoyaning turli aloqa shakllarini-badiiy va badiiy bo'lmagan matnlar, o'zaro ta'sirli hikoyalar, bloglar, elektron maktublar, filmlar va tasviriy hikoyalar, shuningdek, shaxsiy hikoya aytish jarayonlarini tahlil etadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor inson ongining hikoyani qanday idrok etishiga, voqealar o'rtasida qanday aloqalar o'rnatishiga, voqealarning mantiqiy

va hissiy ketma-ketligini qanday qayta qurishiga qaratiladi. Kognitiv narratologiya tilshunoslik, semiotika, psixologiya, estetika va falsafa kabi turli fanlar bilan birlashgan ko'p yo'nalishli ilmiy yondashuvni namoyon etadi. Bu integratsiya hikoyaning ongli tahlilini yanada chuqurlashtiradi, chunki hikoya matni nafaqat til vositasi orqali, balki inson ongidagi ma'no va hissiy tizimlar orqali ham shakllanadi. Kognitiv narratologiya – bu, hikoya va inson ongining o'zaro bog'liqligini o'rganadigan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar sohasi bo'lib, u hikoyalarni nafaqat badiiy matn sifatida, balki inson tafakkurining, hissiy idrokining va tajriba orqali dunyoni anglash jarayonining modellashtirilgan shakli sifatida tahlil qiladi. Kognitiv narratologiya hikoya jarayonini inson ongining faol ishtiroki bilan bog'laydi. Chunki har bir hikoya o'quvchi ongida aqliy olam – “hikoya olami”ni shakllantiradi, bu esa o'quvchiga nafaqat voqealarni anglash, balki ularni his qilish, ularga ma'no berish, axloqiy va falsafiy jihatdan talqin etish imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, hikoya inson idrokining modeli, ya'ni tafakkur, hissiyot va ma'no yaratishning o'zaro ta'sirini ifodalovchi murakkab aqliy tizim sifatida qaraladi.

Kognitiv narratologiya atamasi 1990-yillarning oxirlarida M.Yahn, Y.Eder tomonidan ilmiy muomalaga kirgan bo'lsa-da, uning nazariy ildizlari XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan o'quvchi javobi nazariyasi va qabul nazariyasi tadqiqotlariga borib taqaladi. Wolfgang Iser va Xans Robert Yauss kabi olimlar matnning ma'nosi o'quvchi faol ishtirokida yaratiladi degan g'oyani ilgari surganlar. Bu qarash kognitiv narratologiyaning markaziy tamoyillaridan biri – “ma'no matnda mavjud emas, balki idrokda yaratiladi” degan fikrga asos yaratdi. Roman Ingarden badiiy matnni to'liq “mustaqil” bo'lmagan, balki “bog'liq” obyekt sifatida tasvirlab, ya'ni u o'quvchining aqliy faoliyati orqali ma'no kasb etishini ta'kidlagan. Shuningdek, J.Mendler hikoyalarni ongli qoidalar yoki “hikoya grammatikalari” asosida tushunish modelini taklif etgan, bu esa hikoya idrokini strukturaviy tahlil asosida izohlash imkonini bergan. Kognitiv yondashuvni shakllantirgan muhim bosqichlardan biri R.Shank va R.Abelson tomonidan ilgari surilgan “ssenariy” va “ramka” tushunchalaridir. Bu tushunchalar insonning hikoyani tushunish mexanizmini ruhiy-bilishini psixologiya nuqtai nazaridan izohlaydi. “Ssenariy” inson ongida avvaldan mavjud bo'lgan tajriba ketma-ketliklari asosida voqealarni qayta tashkil etadi, “ramka” esa shu voqealar sodir bo'layotgan kontekstni belgilaydi. Shu tariqa o'quvchi hikoyadagi bo'sh joylarni o'z tajribasi asosida to'ldiradi, voqealarni mantiqan va hissiy jihatdan uyg'unlashtiradi. Bu ongli mexanizm hikoyaning mazmunini chuqurroq anglash, uning ichki sabab-natija munosabatlarini qayta qurish imkonini beradi. M.Yahn va K.Emmott kiritgan “kontekstual ramka” tushunchasi hikoyadagi makon, vaqt va ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatni idrok qilish jarayonini izohlab beradi. Masalan, qahramon “o'rmon yo'lida yurishni boshladi” degan jumlaning o'qiganda, o'quvchi ongida “voqealar shu joyda davom etadi” degan taxmin shakllanadi. Bu esa o'quvchi ongida voqealar manzarasining aqliy modeli hosil bo'lishini bildiradi. Shu tariqa hikoya o'qish jarayonida o'quvchi passiv qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchi ishtirokchiga aylanadi. Kognitiv narratologiyaning yana bir muhim jihati – belgi tizimi (semiotik) orqali ongli olamlarni qurishdir. O'quvchi matnni tahlil qilish jarayonida vaqt (qachon), voqea (nima), joy (qayerda), shaxs (kim), usul (qanday) va sabab (nima uchun) kabi aqliy o'lchamlar asosida hikoya olamini shakllantiradi. Bu jarayon matndagi til birliklari va kontekstual belgilarni anglashdan boshlanadi va o'quvchi ongida “hikoya olami”ni – ongli modelning vujudga kelishiga olib keladi. Mazkur model asosida o'quvchi voqealarni tushunadi, ularga hissiy jihatdan munosabat bildiradi va ularni tahlil etadi. Ilmiy nuqtai nazardan shuni ta'kidlash kerakki, kognitiv narratologiya hikoyani o'rganishda ruhiy holat va kontekstni ajralmas birlik sifatida ko'radi. O'quvchi ongining aqliy mexanizmlari hikoya olamini yaratishda, vaqt va makon o'lchovlarini tartibga solishda hamda qahramonlarning

motivatsiyasi va xatti-harakatlarini tushunishda faol ishtirok etadi. Hikoyalar insonda hamdardlik – empatiya, mehr va ijtimoiy anglashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Qahramonlarning ruhiy holatlari, azob-uqubatlari yoki quvonchlari o'quvchi tomonidan aqliy model orqali qayta yaratiladi. Bu jarayon nafaqat his-tuyg'ularni uyg'otadi, balki insonning ijtimoiy va ma'naviy tafakkurini kengaytiradi. Evolyutsion psixologiya nuqtai nazaridan hikoyalar insonning dunyoni o'yin, tajriba va tasavvur orqali tushunish qobiliyatini rivojlantiruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Bu esa shuni anglatadiki, hikoya insonning ruhiy va aqliy o'sish jarayonining ajralmas qismidir. Kognitiv narratologiya nafaqat adabiyotshunoslikning ichki tarmog'i, balki inson tafakkuri, til tizimi va idrok mexanizmlarini birlashtiruvchi umumiy ilmiy paradigma sifatida shakllanmoqda. U o'quvchining ongida hikoya qanday yaratilishini, ma'no qanday hosil bo'lishini, hamdardlik qanday shakllanishini, til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etadi. Kognitiv narratologiya – bu, insonning hikoya orqali dunyoni idrok etish, uni ma'noga aylantirish va o'zini shu ma'no tizimi ichida anglash jarayonini o'rganuvchi fundamental ilmiy yo'nalishdir. U hikoyani tahlil qilish orqali inson ongining ishlash mexanizmlarini ochib beradi, hamdardlik va tafakkur o'rtasidagi murakkab aloqani yoritadi hamda shunday savolni o'rta tashlaydi: “Biz hikoyani o'qiymizmi yoki hikoya bizni o'qiyaptimi?” Shu jihatdan kognitiv narratologiya zamonaviy gumanitar tafakkurning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, insonni hikoya orqali anglash jarayonining ilmiy asosini yaratadi. Kognitiv narratologiya hikoyani inson ongida sodir bo'ladigan fikrlash, his qilish va ma'no yaratish jarayonining modeli sifatida ko'radi. “Cho'loq turna” ana shunday modeldir – u o'quvchini voqealarga faqat guvoh emas, balki ishtirokchi idrok egasi sifatida jalb etadi. Hikoya davomida o'quvchi ongida bir necha bilish darajalari ketma-ket faollashadi:

1. Sezgi darajasi – qushlarning harakati, tabiat manzarasi, ovoz va harakat orqali hissiy idrok faollashadi.

2. Hamdardlik darajasi – o'quvchi cho'loq turnaning iztirobini his qiladi, o'zini uning o'rniga qo'yadi.

3. Tushuncha darajasi – hikoyaning falsafiy va majoziy ma'nosi shakllanadi (“uchish” – hayotga intilish, “cho'loqlik” – insonning nuqsoni yoki taqdiri). Shunda hikoya inson tafakkurining hissiy, ruhiy va aqliy qatlamlarini birlashtiruvchi ko'p bosqichli bilish tajribasini yaratadi. Herman ta'rifiga ko'ra, har bir hikoya o'quvchi ongida voqealar olami – ya'ni ruhiy tarzda modellashtirilgan dunyoni yaratadi. “Cho'loq turna”da bu dunyo tabiat va hayot qonuni markazida shakllanadi. Hikoyadagi tabiat manzaralari – osmon, shamol, karvon, yolg'iz qolgan turna – o'quvchining ongida borliq olami sifatida jonlanadi. “Karvon olislab ketdi. Cho'loq yolg'iz qoldi. Endi uning oldida havo qarshiligini kesguvchi kuch yo'q.” qushning bu vaziyati o'quvchining idrokida bo'shliq va yolg'izlikning fazoviy tasvirini hosil qiladi. “Havo qarshiligi” ifodasi esa hayotdagi to'siqlarni bildiradi. Shu tarzda hikoya o'quvchi ongida tabiiy obrazlar orqali hayotiy tajriba namunasini yaratadi – bu, kognitiv hikoyashunoslikning asosiy g'oyasidir. Shank va Abelson ta'kidlaganidek, inson hikoyalarni ramka va voqea ketma-ketligi (ssenariy) asosida tushunadi. Xolmirzayev hikoyasida bu mexanizmlar tabiiy ravishda ishlaydi: “Yashash qonuni” ssenariysi: har bir mavjudot faqat yashashga mos bo'lishi kerak. “Ona mehrining sinovi” ramkasi: turnaning o'z bolasini tashlab ketishi – og'ir, ammo tabiiy zaruratdir. “Cho'loqlik” ssenariysi esa jismoniy zaiflik hayotda imkoniyatni cheklaydi, lekin ruhiy kuch buning o'rnini to'ldiradi. “Ular zurriyotni buzadigan va istiqbolda yashashi og'ir bo'lgan farzandlaridan osongina voz kechishadi.” Bu qarash o'quvchi ongida evolyutsion tafakkur ssenariysini ishga soladi. Endi o'quvchi voqeani axloqiy emas, balki biologik va falsafiy nuqtai nazardan tushuna boshlaydi. Natijada hikoya axloqiy bahodan bilish idrokiga o'tadi. Kognitiv narratologiyada hamdardlik hikoya idrokining

markazida turadi. “Cho‘loq turna” o‘quvchini cho‘loq qushga nisbatan rahm-shafqatga undaydi, lekin bu his-tuyg‘u faqat hissiy emas – u aql bilan uyg‘unlashgan anglashdir. “Cho‘loq turna kutilmaganda ustida paydo bo‘lgan soyadan najot kutib, unga intilgancha qoldi.” Bu lahzada o‘quvchi cho‘loq turnaning ichki kechinmasini tasavvur qiladi – umid, qo‘rquv, yolg‘izlik. Shu orqali o‘quvchi hikoya bilan hissiy aynanlashuvga kiradi, bu esa ongda yangi tajriba modelini yaratadi. Hamdardlik o‘quvchining axloqiy sezgirligini oshirib, inson va tabiat o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlikni yanada chuqur his etishiga sabab bo‘ladi. Lakoff va Jonsonning kontseptual majoz nazariyasiga ko‘ra, inson ongida har bir voqea abstrakt tushunchalar bilan bog‘liq holda idrok etiladi. “Cho‘loq turna”da asosiy majoz “uchish = hayotga intilish” g‘oyasidir. “U uchishi kerak edi. U uchishi kerak! Faqat oldinga uchishi!” Bu takrorlar o‘quvchi ongida majoziy kuchlanish hosil qiladi. “Uchish” bu yerda jismoniy harakat emas, balki iroda, erkinlik va yashash uchun kurashning belgisi sifatida talqin etiladi. “Cho‘loqlik” esa inson hayotidagi sinov, cheklov yoki imkoniyat ramzidir. Shu tarzda hikoya majoziy idrok orqali chuqur anglashni hosil qiladi – o‘quvchi qush haqida o‘qir ekan, aslida insoniy taqdir haqida fikrlay boshlaydi. Xolmirzayevning bu hikoyasida markaziy g‘oya – yashash uchun kurash modeli, ya’ni hayotiy barqarorlik tamoyilidir. “Safga yaroqsiz turna ham taqdirga tan bermog‘i kerak.” Bu fikr o‘quvchida hayotning qonuniy, ammo og‘riqli tartibini anglash hissini uyg‘otadi. O‘quvchi bu vaziyatni “rahmsizlik” emas, balki tabiiy zarurat sifatida qabul qiladi. Bu o‘quvchining axloqiy baholash mexanizmini ongli tahlilga aylantiradi – endi u voqeani his-tuyg‘u bilan emas, aql bilan qabul qiladi. Hikoyaning so‘nggi nuqtasi o‘quvchini ruhiy-falsafiy darajaga olib chiqadi. “Cho‘loq turna endi boshqa hayot qo‘ynida edi...” Bu jumla “o‘lim”ni yakun emas, balki borliqning yangi shakliga o‘tish sifatida talqin qiladi. Shu lahzada hikoya o‘quvchi ongida ontologik muvozanat – “hayot–o‘lim”, “mehr–rahmsizlik”, “zaiflik–kuch” o‘rtasidagi uyg‘unlikni shakllantiradi. Natijada, “Cho‘loq turna” o‘quvchining hissiy, aqliy va falsafiy idrokini birlashtiruvchi psixomental tajribaga aylanadi. Asar qush haqidagi hikoya bo‘lishdan tashqari, inson ongining evolyutsion o‘rishini – sezgidan tushunishga, hamdardlikdan falsafiy anglashga o‘tish jarayonini tasvirlaydi. “Cho‘loq turna” hikoyasi kognitiv narratologiya tamoyillarini to‘liq o‘zida mujassam etadi va hikoya o‘quvchi ongida ruhiy model sifatida shakllanadi, hamdardlik idrokni chuqurlashtiradi, yashash qonuni evolyutsion ssenariy sifatida ishlaydi, uchish majozasi insoniy orzu, iroda va kurash ramziga aylanadi, hayot va o‘lim o‘rtasidagi falsafiy uyg‘unlik o‘quvchini kognitiv anglashga olib keladi. Shu sababli hikoya o‘quvchining ruhiy va aqliy holatini o‘zgartiruvchi kuchga ega bo‘ladi – bu, esa kognitiv narratologiyaning eng muhim maqsadi- badiiy asar orqali inson ongini kengaytirishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Herman D. Narrative theory and the cognitive sciences. Narrative inquiry. 2001, Vol. 11, N 1, 2001, P. 1-1. DOI: <https://doi.org/10.1075/ni.11.1.01her>
2. Jahn M. Frames, preferences, and the reading of third-person narratives: Towards a cognitive narratology. Poetics today. 1997, Vol. 18, N 4, P. 441-468. DOI: <https://doi.org/10.2307/1773182>
3. Iser W. The Implied Reader: Patterns of Communication in Prose Fiction from Bunyan to Beckett. Baltimore: Johns Hopkins UP, 1978, 303 p.
4. Schank R.C., Abelson R.P. Scripts, plans, goals and understanding: an inquiry into human knowledge structures. New York: Psychology Press, 1977, 266 p. DOI: <https://doi.org/10.4324/9780203781036>